

**O‘ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI
VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.Fil.15.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

ASHIROV ODILBEK MAXSUDOVICH

**O‘ZBEK MUMTOZ FILOLOGIYASIDA QIPCHOQ LAHJASI
TADQIQIGA OID MANBALAR**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
of philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Ashirov Odilbek Maxsudovich

O'zbek mumtoz filologiyasida qipchoq lahjasi tadqiqiga oid manbalar.....3

Ashirov Odilbek Makhsudovich

Sources of Uzbek classical philology on the research of the Kypchak dialect.....25

Аширов Одилбек Махсудович

Источники узбекской классической филологии по исследованию кыпчакского говора.....47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....52

**O‘ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI
VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.Fil.15.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

ASHIROV ODILBEK MAXSUDOVICH

**O‘ZBEK MUMTOZ FILOLOGIYASIDA QIPCHOQ LAHJASI
TADQIQIGA OID MANBALAR**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Fil6695 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tai.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurjanov Oybek Erkin o'g'li
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent

Rasmiy opponentlar:

O'razbayev Abdulla Durdibayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Yusufov Berdaq
filologiya fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:


O'zbekiston Milliy universiteti


Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Fil.15.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "17" - iyun soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel.: (871) 233-36-50, faks: (871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).


Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (38 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 700100, Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel.: (871) 262-74-58

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "3" - iyun da tarqatildi.
(2026-yil "3" - iyun dagi 5 raqamli reyestr bayonnomasi)




N.M. Mahmudov
Ilmiy daraja beruvchilar Ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori, professor


A.M. Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori
(DSc), katta ilmiy xodim


D.S. Xudoyberganova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida turkiy tillarni qiyosiy-tarixiy va manbashunoslik aspektida tadqiq qilish hamma davrlarda muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, globallashuv jarayonlarida tillarning tarixiy ildizlarini tiklash, ularning taraqqiyot bosqichlarini belgilovchi qadimiy va oʻrta asrlar yozma yodgorliklarining lingvistik tabiatini oʻrganish tillarning oʻzlikni saqlab qolishidagi oʻrnini koʻrsatib beradi. Jahon turkologiyasida turkiy tillar tarixini umumiy tarzda emas, balki aniq lahjalar, xususan, qipchoq lahjasi doirasida maxsus tadqiq etish, ularning boshqa tillar (masalan, oʻgʻuz tillari) bilan tarixiy integratsiya jarayonlarini aniqlash boʻyicha keng koʻlamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunda XI – XV asrlarda yaratilgan filologik va sohaviy manbalarning leksik-grammatik xususiyatlarini yoritish muhim ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida turkiy tillarni tarixiy-qiyosiy aspektida oʻrganishga doir izlanishlar olib borilgan. Bu tadqiqotlarda turkiy tillar, jumladan, oʻzbek va oltoy tili, ular shevalarining tarixiy taraqqiyoti, genezisiga doir maʼlumotlar keltirilgan, mazkur tillarning umumiy taraqqiyot bosqichlariga doir ilmiy xulosalar berilgan, oʻziga xos xususiyatlari ajratilgan. Oʻzbek tili qipchoq lahjasi va oltoy tili leksikasini oʻrganish, shu asosda davr tili xususiyatlarini umumlashtirish, taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, funksional-semantik, leksemalar oʻrtasidagi paradigmatic munosabatlarni tahlil qilish, ularga xos jihatlarini ajratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasida bugungi kunda milliy tilimizning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, uning shakllanishidagi lahja va shevalarning oʻrnini chuqur oʻrganish davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan. “Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lugʻat boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy terminlarning oʻzbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qoʻllanishini taʼminlash dolzarb vazifa boʻlib turibdi”¹. Oʻzbek tili tarixiy dialektologiyasi va manbashunosligida qipchoq lahjasi muhim oʻrin tutadi. Ammo mamluklar davrida (XIII-XV asrlar) yaratilgan koʻplab noyob filologik va sohaviy yozma yodgorliklarning oʻzbek tili tarixi, ayniqsa, uning qipchoq qatlami bilan genetik aloqadorligi yaxlit holda, monografik planda yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu maʼnoda, oʻzbek mumtoz filologiyasida qipchoq lahjasi tadqiqiga oid manbalarni qiyosiy-tarixiy jihatdan oʻrganish, ularning lisoniy xususiyatlarini zamonaviy oʻzbek shevalari bilan solishtirish, sohaviy terminlarning etimologiyasini yoritish milliy tilshunosligimiz tarixini boyitish hamda tarixiy manbashunoslik uchun mustahkam zamin y. Bu esa tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 21 октябрдаги ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг 30 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // «Халқ сўзи» газетаси. 218 (7448)-сон. – Тошкент, 2019 йил 22 октябрь.

tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 9-martdagi PQ-4633-son "Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 139-son "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon turkologiyasi va o'zbek tilshunosligida qipchoq tillari va ularning tarixiy manbalari turli aspektlarda, qator yirik olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Turkologiya tarixida mamluklar davri (XIII – XV asrlar) turkiy yozma yodgorliklari dastlab xorijiy va rus sharqshunoslari tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi. Dastlabki izlanishlar doirasida G.Kuun², M.T.Xoutsma³, K.Brockelman⁴ kabi yevropalik olimlar qipchoq tillarining leksik-grammatik xususiyatlarini yoritishda dastlabki ilmiy poydevorni yaratdilar.

Keyinchalik bu an'ana Yevropa va G'arb olimlari tomonidan kengaytirilib, maxsus transkripsiya va leksikografik tahlil ishlari amalga oshirildi. Xususan, T.Xalashi-Kun⁵, J.Deni⁶, A.Zayonchkovskiy⁷ hamda J.Ekman⁸ kabi olimlar mamluk-qipchoq matnlarini matnshunoslik nuqtayi nazaridan tizimlashtirdilar. R.Ermersning mamluk davri arabcha-turkiy grammatikalariga bag'ishlangan tadqiqotlari⁹ arab qoliplarining turkiy tillarga tatbiq etilishi masalasini chuqur ochib berdi.

Turkiyalik olimlar Mamluk-qipchoq grammatikolari va lug'atlarini aynan qardosh tillar kontekstida o'rganishga katta hissa qo'shdilar. A.Jafaro'g'li¹⁰,

² Kuun Géza. Codex Cumanicus Bibliothecae ad templum divi Marci Venetiarum. – Budapest: Editio princeps, 1880. – P. 395.

³ Houtsma M.Th. Ein türkisch-arabisches Glossar. – Leiden: E.J. Brill, 1894. – P. 114.

⁴ Brockelmann C. Osttürkische Grammatik der islamischen Litteratursprachen Mittelasiens. – Leiden: Brill, 1928. – P. 392.

⁵ Halasi-Kun T. The Qipchaq Mamlüks // Archivum Ottomanicum. – 1950. – № 1. – P. 247-266

⁶ Deny J. L'arméno-coman et les 'Éphémérides' de Kamieniec (1604-1613). – Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1957. – P. 71.

⁷ Zajaczkowski A. Vocabulaire arabe-kiptchak de l'époque de l'État Mamelouk "Bulgat al-mustaq fi lugat at-turk wa-l-qifzaq". I. Le Nom. – Warszawa: PWN, 1958. – P. 140.

⁸ Eckmann J. Chagatay Manual. – Bloomington: Indiana University Publications, 1966. – P. 340.

⁹ Ermers R. Arabic Grammars of Turkic: The Arabic Linguistic Model Applied to Foreign Languages & Translation of 'Abu Hayyan al-Andalusi's Kitab al-Idrak li-Lisan al-'Atrak. – Leiden: Brill, 1999. – P. 420.

¹⁰ Caferoğlu A. Kitâb al-Idrâk li-Lisân al-Atrâk. – İstanbul: Evkaf Matbaası, 1931. – S.160.

B.Atalay¹¹ va keyinchalik J.O‘zгур¹² hamda R.Yilmaz¹³ kabi tadqiqotchilar sohaviy va filologik asarlardagi qipchoq va o‘g‘uz unsurlari integratsiyasini qiyosiy jihatdan keng tahlil qilishdi.

Sobiq Ittifoq va MDH hududida qipchoq yozma yodgorliklarining leksik va fonetik tizimini o‘rganish N.A.Baskakov¹⁴, A.K.Kurishjanov¹⁵, A.N.Garkaves¹⁶ hamda E.N.Najip¹⁷ kabi yirik turkologlarning monografik ishlarida o‘z aksini topgan. Bu izlanishlar qipchoq tillarining tarixiy leksikologiyasi va fonetikasini yaratishda mustahkam nazariy baza vazifasini o‘tadi.

O‘zbek tilshunosligida qipchoq lahjasi tarixi va dialektologiyasi bir qator yetakchi olimlarning izlanishlarida o‘z aksini topgan. X.Doniyorov¹⁸, B.Jo‘rayev¹⁹, A.Ishayev²⁰ hamda V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov²¹ kabi dialektologlarning fundamental tadqiqotlarida jonli o‘zbek shevalari tizimidagi qipchoq lahjalarning fonetik-morfologik va leksik me‘yorlari ajratib ko‘rsatilgan.

O‘rta asrlar yozma manbalarining til xususiyatlarini va aynan yurtimizda saqlanayotgan noyob nusxalarini manbashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etishda o‘zbek matnshunosligi va filologiyasi namoyandalari A.K.Borovkov²², E.I.Fozilov²³, N.A.Rasulova²⁴, Sh.A.Fayzullayeva²⁵ va A.Yunusov²⁶ kabi olimlar ulkan ilmiy ishlarni amalga oshirdilar. Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida B.Abdushukurov²⁷ va H.Norimov²⁸ singari izlanuvchilar tarixiy manbalardagi leksik birliklarning etimologik hamda dialektal xususiyatlarini monografik tadqiq qildilar.

O‘zbek tilshunosligida, xususan, Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududida tarqalgan qipchoq va o‘g‘uz shevalarini, ularning leksik-grammatik hamda fonetik

¹¹ Atalay B. Ettuhfet-üz-zekiyye fil-lugat-it-Türkiyye. – İstanbul: TDK Yayınları, 1945. – S. 296.

¹² Özgür C. Baytaratül-Vazih'in Kıpçakça ve Türkmençe Yazmalarına Göre Kıpçakçanın Oğuzcalaşması Üzerine Bir Dil Araştırması: Doktora Tezi. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi, 1994. – S. 450.

¹³ Yılmaz R. Ed-Dürretül-Mudıyye fi'l-Lugati't-Türkiyye'nin Kıpçak ve Oğuz Nüshalarındaki Bazı Arkaik Kelimeler // Din ve Bilim. – 2022. – 5(2). – S. 310–341

¹⁴ Баскаков Н.А. Тюркские языки. – М.: Издательство восточной литературы, 1960. – С. 244.

¹⁵ Курьшжанов А.К. Исследование по лексике старокыпчакского письменного памятника XIII в. “Тюркско-арабского словаря”. – Алма-Ата: Наука, 1970. – С. 234.

¹⁶ Гаркавец А.Н. Кыпчакские языки: куманский и армяно-кыпчакский. – Алма-Ата: Наука Каз ССР, 1987. – С. 223.

¹⁷ Наджип Э. Н. Исследования по истории тюркских языков XI-XIV вв. – М.: Наука, 1989. – С. 283.

¹⁸ Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва кыпчоқ диалектлари. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Маориф министрлиги, 1976. – Б. 144.

¹⁹ Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 169.

²⁰ Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 184

²¹ Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 328.

²² Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тefsира XII – XIII вв. – М.: Изд-во восточной литературы, 1963. – С. 367.

²³ Фазылов Э.И., Зияева М.Т. Изысканный дар тюркскому языку (Грамматический трактат XIV в. на арабском языке). – Ташкент: Фан, 1978. – С. 471.

²⁴ Расулова Н. А. Исследование языка «Китаб ал-идрак ли-лисан ал-атрак» Абу Хайяна (Морфология, лексика и глоссарий): Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1969. – Б. 180.

²⁵ Файзуллаева Ш. А. Исследование языка памятника XIV в. «Китабу Булгат аль-Муштак фи лугат ат-турк ва-л Кыфчак»: Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент: 1969. – С. 195.

²⁶ Юнусов А. “Таржумон” – XIV аср ёзма обидаси (нашрга тайёрлаш ва тадқиқ): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1980. – Б. 186.

²⁷ Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 280.

²⁸ Наримов Х.А. Хоразм минтақавий фитонимларининг лисоний таҳлили: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Урганч, 2020. – Б. 154.

xususiyatlarini monografik va dialektologik jihatdan tadqiq etishda bir qator yirik olimlar faoliyat olib borganlar. Bu borada F.A.Abdullayevning Xorazm shevalari tasnifiga oid fundamental tadqiqotlari²⁹, A.Ishayevning Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari va Mang‘it shevasini o‘rganishga qaratilgan ishlari³⁰, shuningdek, E.O‘rozovning Janubiy Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasiga doir izlanishlari³¹ alohida e‘tiborga molik.

Shuningdek, Orolbo‘yi va Qoraqalpog‘iston hududidagi o‘zbek shevalarining fonetik, morfologik, leksik tizimini hamda lisoniy geografiyasini tadqiq etishda Qoraqalpog‘istonda faoliyat olib borgan shevashunos olimlar, xususan, Y.M.Ibragimov³², Z.Ibragimova³³, U.Ibragimova³⁴ va M.Xudoyorova kabi tadqiqotchilarning xizmatlari beqiyosdir. Ushbu olimlarning izlanishlari qipchoq shevalarining tarixiy asoslarini va boshqa turkiy tillar bilan o‘zaro munosabatini aniqlashda muhim nazariy manba vazifasini o‘taydi.

O‘zbek tilshunosligida qipchoq lahjasining hududiy ko‘rinishlari, ularning leksik-grammatik xususiyatlari va tarixiy manbalarini monografik planda tadqiq etishda bir qator zamonaviy izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan, N.I.Shoimova o‘z dissertatsiyasida O‘rta Qashqadaryo “j”-lovchi qipchoq shevalarining o‘ziga xos leksik qatlamini chuqur o‘rgangan bo‘lsa³⁵, Sh.M.Alimova tomonidan Xorazm qipchoq shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari tizimli ravishda maxsus tadqiq qilingan³⁶. Shuningdek, A.Q.Bo‘ronov o‘zining qator tadqiqotlarida o‘zbek tili qipchoq lahjasi leksikasining oltoy tiliga munosabatini, etnik-lisoniy parallelliklarni hamda “At-tuhfa” kabi o‘rta asrlar manbalarining qipchoq lahjasi tarixini o‘rganishdagi ahamiyatini qiyosiy-tarixiy va etnolingvistik jihatdan keng tahlil qilgan³⁷.

Yuqorida sanab o‘tilgan salmoqli ilmiy izlanishlarga qaramay, mavjud tadqiqotlarda Mamluk-qipchoq davriga oid filologik (grammatik va leksikografik) hamda sohaviy (veterinariya va harbiy ish) yozma yodgorliklar o‘zbek mumtoz filologiyasi kontekstida hamda bevosita hozirgi o‘zbek tili qipchoq lahjasining tarixiy ildizi (prototipi) sifatida yaxlit, kompleks va monografik tarzda obyekt qilib olinmagan. Ushbu manbalar materiallarini zamonaviy O‘zbekiston hududidagi qipchoq shevalari bilan bevosita chog‘ishtirish, ularning o‘zbek tili tarixiy taraqqiyotidagi “Qoraxoniylar” va “Eski o‘zbek tili” davrlari orasidagi

²⁹ Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961. – Б. 348.

³⁰ Ишаев А. Ко‘rsatilgan manba. – В. 176.

³¹ Ўрозов Э. Ю. Жанубий Қорақалпоғистон ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 45.

³² Ибрагимов Ю.М. Исследования узбекских говоров Приаралья: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1994. – С. 51.

³³ Ибрагимова З. Қорақалпоғистон ўзбек шевалари қишлоқ хўжалиги лексикасининг лингвогеографик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 26.

³⁴ Ибрагимова У. Қорақалпоғистон Республикаси ўзбек шеваларида сўз ясалиши: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Қарши, 2019. – Б. 12.

³⁵ Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё желовчи қипчоқ шевалари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 174.

³⁶ Alimova Sh. M. Xorazm qipchoq shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Urganch, 2023. – В. 129.

³⁷ Бўронов А. Олтойлар. – Тошкент: Мухаррир, 2017. – Б. 184; Shu muallif. O‘zbek tili qipchoq lahjasi leksikasining oltoy tiliga munosabati: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – В. 52; Shu muallif. “At-tuhfa”: китоб бўйича олимлар баҳси нега 8 асрдан буён тугамади? // Oyina.uz. – 2024. <https://oyina.uz/kiril/article/1424>

lisoniy bog‘lovchi halqa sifatidagi o‘rnini ko‘rsatib berish masalasi mazkur dissertatsiya doirasida birinchi marta tizimli ravishda yoritilmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi tarkibiga kiruvchi “O‘zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari hamda innovatsion izlanishlar” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek mumtoz filologiyasi tarixiga daxldor bo‘lgan XI–XV asrlarga mansub nodir yozma va toshbosma manbalarni tarixiy-lingvistik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan kompleks tadqiq etish, ularning leksik-grammatik xususiyatlarini yoritish hamda bu asarlarning eski o‘zbek tili qipchoq qatlami shakllanishidagi tarixiy o‘rnini dalillashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XI – XII asrlarga mansub “Devonu lug‘otit turk”, “Muqaddimat ul-adab” hamda Mamluk davri leksikografik manbalaridagi fonetik-leksik qaydlarni aniqlash asosida o‘rta asrlardagi turkiy (qipchoq) va turkman (o‘g‘uz) lahjalarining tasnifiy asoslarini yoritish;

o‘rta asr yozma yodgorliklaridagi qipchoqcha deb belgilangan lisoniy birliklarning (fonetik, morfologik, leksik xususiyatlarni) zamonaviy o‘zbek tilining qipchoq shevalari materiallari bilan qiyosiy o‘rganish orqali ular o‘rtasidagi genetik vorislikni isbotlash;

mamluklar davrida yaratilgan sohaviy (veterinariya, ippologiya, harbiy ish) asarlar misolida eski o‘zbek tili qipchoq qatlamining ilmiy-funksional uslubi va maxsus terminologiyasining shakllanishi tadrijini ochib berish;

tadqiq etilayotgan manbalarning til xususiyatlarini tahlil qilish asosida ularning o‘zbek tili tarixidagi qoraxoniylar davri va eski o‘zbek tili davri oralg‘idagi bog‘lovchi halqa sifatidagi ilmiy-nazariy ahamiyatini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek tili tarixiga oid XI–XV asrlarda yaratilgan qipchoq lahjasi xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan manbalar: “Devonu lug‘otit turk”, “Muqaddimat ul-adab”, “Kodeks Kumanikus”, “Kitob al-idrok lilison al-atrok”, “At-tuhfatu-z-zakiyya”, “Tarjumoni turkiy”, “Bulg‘at al-mushtoq”, “Ad-Durra al-mudiya” kabi filologik va “Baytarat ul-vozih” kabi sohaviy yozma yodgorliklar matni olingan.

Tadqiqotning predmeti o‘rganilayotgan tarixiy manbalarda aks etgan qipchoq lahjasiga xos fonetik qonuniyatlar, leksik-semantik guruhlar, morfologik ko‘rsatkichlar hamda ularning o‘zbek tili tarixiy dialektologiyasidagi o‘rni va qiyosiy-tarixiy xususiyatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot jarayonida umumiy filologik tahlilning tavsifiy (deskriptiv), qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-dialektologik, lingvostatistik hamda tarixiy-etimologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XI–XII asrlarga mansub “Devonu lug‘otit turk” va “Muqaddimat ul-adab” asarlaridagi fonetik-leksik qaydlar hamda mamluk-qipchoq davriga oid leksikografik manbalarning tipologik tasnifi asosida o‘rta asrlardayoq qipchoq va o‘g‘uz lahjalarining lisoniy chegaralari ilmiy jihatdan farqlangani aniqlangan;

yozma yodgorliklardagi qipchoq lahjasiga xos fonetik (*z-lashish*, *g'* ning saqlanishi), morfologik (*-niñ* qaratqich va *-g'ali* maqsad ravishdoshi) va leksik xususiyatlarning zamonaviy o'zbek tili qipchoq shevalaridagi (Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo) relik (qoldiq) ko'rinishlari bilan genetik vorislikka ega ekanligi qiyosiy-tarixiy tahlillar asosida dalillangan;

o'rta asrlarda yaratilgan sohaviy (veterinariya, ippologiya, harbiy ish) asarlar tadqiqi misolida eski o'zbek tilining qipchoq qatlami faqat so'zlashuv vositasi emas, balki murakkab ilmiy-texnik tushunchalarni ifodalovchi, maxsus terminologik bazaga ega funksional fan tili darajasida shakllangani ochib berilgan;

tadqiq etilgan mamluk-qipchoq manbalarining o'zbek tili tarixidagi qoraxoniylar davri va eski o'zbek (chig'atoy) tili davri oralig'idagi uzilishlarni to'ldiruvchi muhim bog'lovchi halqa (prototip) vazifasini o'taganligi nazariy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mamluk-qipchoq davriga oid filologik va sohaviy manbalar materiallarini zamonaviy o'zbek tilining qipchoq lahjalari bilan qiyosiy o'rganish orqali dialektologiya, tarixiy leksikologiya va matnshunoslik fanlari uchun qimmatli faktik baza yaratilganligi isbotlangan;

tadqiq etilgan manbalardagi arxaik so'zlar, unutilgan atamalar va grammatik shakllarning etimologiyasini tiklash natijasida hozirgi o'zbek adabiy tili lug'at fondini boyitish imkoniyatlari ochib berilgan;

“Baytarat ul-vozih” va boshqa maxsus manbalar asosida shakllangan veterinariya, ippologiya va harbiy terminlarning tarixiy ildizlarini aniqlash orqali zamonaviy sohaviy lug'atlarni tuzish uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

o'rta asrlarda yaratilgan ikki tilli (arabcha-turkiy) va mavzuiy lug'atlarning tuzilish prinsiplarini tahlil qilish asosida bugungi kunda tarixiy leksikografiya va manbashunoslik yo'nalishida yangi o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish zarurligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'yilgan ilmiy muammoning dolzarbligi va to'g'ri yondashilganligi, tadqiqot manbalari sifatida xalqaro miqyosda e'tirof etilgan nodir qo'lyozma hamda toshbosma asarlarning (“Kitob al-idrok”, “At-tuhfa”, “Kodeks Kumanikus”, “Baytarat ul-vozih”) matnlari olinganligi, lisoniy tahlillarning qiyosiy-tarixiy hamda dialektologik metodlar asosida olib borilganligi, olingan natija va xulosalarning nufuzli xorijiy va mahalliy jurnallarda e'lon qilingani hamda amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** o'zbek mumtoz filologiyasi, xususan, eski o'zbek tili tarixi va tarixiy dialektologiyasiga oid nazariy qarashlarni yangi manbaviy dalillar bilan boyitishi, Mamluk-qipchoq yozma yodgorliklarining lisoniy xususiyatlarini o'rganish orqali turkiy tillar tarixiy tasnifi va o'zbek tili qipchoq lahjasi shakllanish bosqichlarini aniqlashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalarining **amaliy ahamiyati** olingan xulosalar va to'plangan materiallardan oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan “O'zbek tili tarixi”, “Tarixiy grammatika”,

“O‘zbek dialektologiyasi”, “Turkiy filologiyaga kirish” fanlari bo‘yicha o‘quv adabiyotlari va ma‘ruza matnlarini yaratishda, shuningdek, o‘zbek tilining tarixiy, dialektologik va etimologik lug‘atlarini tuzishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek mumtoz filologiyasida qipchoq lahjasi tadqiqiga oid manbalarni o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar (yangiliklar) asosida:

ishning o‘rta asrlarda qipchoq va o‘g‘uz lahjalarining tasnifiy farqlanishiga doir va manbalardagi fonetik-morfologik xususiyatlarning zamonaviy qipchoq shevalarida reliktda saqlanganligini dalillash bo‘yicha olingan xulosalardan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan AL-662204393 raqamli “Qoraqalpog‘iston folklorshunosligi antologiyasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining 2025-yil 9-dekabrda 01.21.04/3740-son ma‘lumotnomasi). Natijada, qipchoq lahjasiga oid tarixiy-lisoniy materiallar antologiyaning dialektologik va etnografik jihatdan boyishiga xizmat qilgan;

mamluk-qipchoq manbalarining o‘zbek tili shakllanishidagi bog‘lovchi halqa sifatidagi o‘rniga oid ilmiy-nazariy qarashlardan O‘zR FA Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining “Qoraqalpoq yozuvchilarining ijodiy laboratoriyasini monografik aspektda tahlil qilish” (2021-2023) mavzusidagi fundamental ilmiy loyahasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zR FA Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 16-dekabrda 802/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada, hozirgi qoraqalpoq lirikasini morfologik va etimologik aspektda tahlil qilishda dissertatsiyadagi xulosalar muhim nazariy tayanch vazifasini o‘tagan;

qipchoq tilining sohaviy va funksional fan tili sifatida shakllanganligi va umumiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi teleradiokanali” DMning “Kúsh bilimde” va “Qayirli tań” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (“Qoraqalpog‘iston Respublikasi teleradiokanali” DMning 2025-yil 30-dekabrda 05-22/792-son ma‘lumotnomasi). Natijada, o‘zbek tilining boy tarixi va yozma yodgorliklari haqida xalqimizga ilmiy asoslangan ma‘lumotlar yetkazilishi ta‘minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, shundan O‘zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (jumladan, 6 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda) shuningdek, respublika jurnallarida 1 ta maqola e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 165 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi oydinlashtirilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan. Natijalarning joriy qilinishi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Ishning birinchi bobi **“Qipchoq lahjasiga oid qaydlar aks etgan mumtoz filologik manbalar”** deb nomlanib, uch fasldan iborat. Birinchi bobning **“Tarixiy lisoniy manzara, qipchoq tilining maqomi, o'zaro ta'sirlar va filologik meros”** deb nomlangan birinchi faslida tarixiy lisoniy manzara, qipchoq tilining maqomi, o'zaro ta'sirlar va filologik meros masalalari diaxron-sinxron aspektda tadqiq etilgan. Turkiy tillar tarixiy dialektologiyasida qipchoq tillari va ularning taraqqiyot bosqichlarini o'rganish o'zbek milliy tilining genezisini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Garchi sof qipchoq tilida yaratilgan dastlabki manbalar (*“Codex Cumanicus”* va mamluk-qipchoq lug'atlari) XIV asrga to'g'ri kelsa-da, qipchoq unsurlarining ilk lisoniy ko'rinishlari ancha avvalgi davr adabiy yodgorliklarida lisoniy sintez (koyne) sifatida kuzatiladi.

Tarixiy-lisoniy tahlillar shuni ko'rsatadiki, XII asr o'rtalarida Sirdaryoning quyi oqimlarida yaratilgan Xoja Ahmad Yassaviyning *“Hikmatlar”*i o'sha davr turkiy tilining murakkab qorishiq xususiyatlarini o'zida mujassam etgan ilk muhim filologik manbadir. Mutaxassislarining fikricha, *“Hikmatlar”* tilining negizida, asosan, qipchoq tili yotadi. Xususan, asar tilining fonetik belgilariga ko'ra *“y”*lashgan emas, balki *“j”*lashgan (*“j”*-lovchi) guruhga mansubligi³⁸ uning hozirgi O'zbekistonning Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan *“j”*-lovchi qipchoq shevalarining bevosita tarixiy asoslaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqotchilar asar tilini aralash o'g'uz-qipchoq³⁹, qipchoq-o'g'uz⁴⁰ yoki Sharqiy turkiy deb turlicha tasniflagan bo'lsalar-da, ushbu lisoniy sintetik tabiat aslida qipchoq va o'g'uz qabilalarining yagona geografik makondagi konvergentsiyasi (qorishuvi) mahsulidir.

Xuddi shunday qipchoq-o'g'uz integratsiyasini XIII asr boshlariga oid Qul Alining *“Qissai Yusuf”* dostonida ham kuzatish mumkin. K.Brockelman asar tilini janubiy o'g'uz tillari guruhiga kiritgan bo'lsa⁴¹, tatar olimlari uni Volga bo'yi Bulg'or turkiy tili (qipchoq guruhining bulg'or-qipchoq tarmog'i) doirasida o'rganishadi⁴². A.K.Borovkovning Xorazm yoki Sirdaryo bo'yi lahjalariga xos

³⁸ Köprülü, M. F. Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar. – Ankara: Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları, 1991. – S. 150–180.

³⁹ Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тевсира XII—XIII вв. – М.: Изд-во восточной литературы, 1963. – С. 367.

⁴⁰ Наджип Э.Н. Тюркоязычный памятник XIV века «Гулистан» Сейфа Сарай и его язык. – Алма-Ата: Наука, 1975. – С. 16-17.

⁴¹ Brockelmann C. Osttürkische Grammatik der islamischen Litteratursprachen Mittelasiens. – Leiden: Brill, 1928.

⁴² Кол Гали. Кыйссаи Йосыф: Йосыф турында кыйсса. – Казан: Тат. кит. нэшр., 1983. – С. 426-494; Закиев М.З. Проблемы языка и происхождения волжских татар. – Казань: Таткнигоиздат, 1986. – С. 184.

xususiyatlarni aniqlagani⁴³ asar tilida qipchoq fonetikasi (jarangsiz undoshlarning qattiqlashuvi, spirantizatsiya) va morfologiyasining kuchli ta'sirini, ya'ni bu yodgorlik o'zbek tili o'g'uz va qipchoq shevalari tutashgan hududlarda (masalan, Xorazm vohasida) shakllanganligini dalillaydi.

Tadqiqotda XIII asr boshlaridagi mo'g'ul istilolari natijasida Oltin O'rda hududida yuzaga kelgan etnolingvistik vaziyat tahlil qilingan. Qipchoqlar, bulg'orlar, xorazmlilar va boshqa elatlarning aralashuvi⁴⁴ natijasida shakllangan "Oltin O'rda turkiysi"⁴⁵ yagona sof til emas, balki aralash o'g'uz-qipchoq koynesidir. Xorazmiy, Qutb, Sayfi Saroyi kabi adiblarning asarlari⁴⁶ ushbu aralash tilning namunasi sifatida qipchoq qatlamining ustuvorligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyada qipchoq dialektlari ta'sirida shakllangan uchta asosiy yozma til tipi (Misr Mamluklari davri ilk yozma tili; Rivojlangan mamluk-qipchoq tili; Oltin O'rdaning sharqiy hududlari yozma tili) qiyosiy o'rganilgan⁴⁷. Qipchoq tili tarixini o'rganishda 1245-yilga nisbat beriladigan "Turkiy-arabcha lug'at" janubi-g'arbiy qipchoq (kuman-qipchoq) guruhiga mansubligi isbotlangan bebaho lisoniy dalillardir.

Mamluk Misrida (1250-1517) Dashti Qipchoqdan kelgan turkiylarning (11 ta yirik qabila) harbiy-siyosiy ustunligi⁴⁸ qipchoq tilining davlat boshqaruvi va qo'shin tiliga aylanishiga, o'ziga xos bilingvizm muhitining shakllanishiga olib keldi⁴⁹. Natijada, amaliy ehtiyoj yuzasidan Abu Hayyon asarlari, "At-tuhfa az-zakiyya", "Kitob bulg'at al-mushtoq" kabi o'nlab noyob turkiy-arabcha lug'at va grammatikalar yaratildi. E'tiborli jihati shundaki, qiyosiy-dialektologik tahlillar Mamluk davlatida qo'llangan qipchoq tili bilan hozirgi o'zbek tilining qipchoq lahjalari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri genetik yaqinlikni tasdiqlaydi⁵⁰. Yodnomalardagi barqaror fonetik qonuniyatlar va morfologik afikslar bugungi kunda Qoraqalpog'iston, Xorazm, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi o'zbek shevalarida relik shaklda izchil saqlanib qolganini isbotlangan.

Yozma yodgorliklar tilining dialektal jihatdan geterogen (ko'p unsurli) ekanligi T.Halasi-Kun tomonidan aniq tasniflangan (sof qipchoq, sof o'g'uz, aralash qipchoq-o'g'uz)⁵¹.

Birinchi bobning ikkinchi faslida Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida qadimgi qipchoq tili xususiyatlarining ilk ilmiy tavsifi masalalari tahlil qilingan. Asar nafaqat turkiy tilning eng qadimgi lug'ati, balki

⁴³ Боровков А.К. Ко'rsatilgan manba.

⁴⁴ Golden, P. B. An Introduction to the History of the Turkic Peoples: Ethnogenesis and State-Formation in Medieval and Early Modern Eurasia and the Middle East. – Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1992. – P. 494.

⁴⁵ Тенишев Э. Р. (отв. ред.). Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Региональные реконструкции. – М.: Наука, 1997. – С. 600.

⁴⁶ Наджип Э. Н. Исследования по истории тюркских языков XI-XIV вв. / Отв. ред. А. Н. Кононов. – М.: Наука, 1989. – С. 283.

⁴⁷ Zajaczkowski, A. Najstarsza wersja turecka Husräv u Širin Qutba. – Warszawa: PWN, 1958-1961; Eckmann, J. Chagatay Manual. – Bloomington: Indiana University, 1966. – P. 340.

⁴⁸ Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари. – Тошкент, 1976. – Б. 148.

⁴⁹ Ayalon, D. L'esclavage du Mamelouk. – Jerusalem, 1951. – P. 66.

⁵⁰ Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – Б. 320.

⁵¹ Halasi-Kun T. Die mameluk-kipschakischen Sprachstudien... – Budapest, 1940. – S. 80-83.

XI asrdagi (mo‘g‘ul istilolaridan avvalgi) turkiy qabilalar, xususan, qipchoqlar tili haqida bevosita guvohlik beruvchi noyob manbadir. “Devon”da qipchoq lahjasiga oid deb ko‘rsatilgan jami 44 ta so‘z (9 ta fe‘l, 35 ta ot) qayd etilgan bo‘lib⁵², ular hozirgi o‘zbek tili qipchoq shevalarining tarixiy leksikologiyasini o‘rganishda birlamchi dalil vazifasini o‘taydi.

Tadqiqotda M.Koshg‘ariy tomonidan qipchoq va o‘g‘uz tillari o‘rtasida amalga oshirilgan qiyosiy-fonetik tahlillar bugungi dialektal me‘yorlarga bog‘lab o‘rganildi. Alloma qayd etgan ikki unli orasidagi jarangli /y/ undoshining qipchoqlarda saqlanishi, o‘g‘uzlarda esa tushib qolishi (*čumyuq* – *čumuq*)⁵³ bugungi o‘zbek shevalaridagi *tag*‘ / *dag*‘ kabi farqlanishlarning tarixiy asosi ekanligi dalillandi⁵⁴. Shuningdek, so‘z boshidagi *m*- > *b*- (*mün* > *bün* – sho‘rva), *t*- > *d*- (*tewe* > *dewe* – tuya) kabi almashinuvlar qipchoq, o‘g‘uz va qarluq guruhlarini tasniflovchi asosiy fonetik belgilar sifatida baholandi⁵⁵.

Ayniqsa, qadimgi turkiy tildagi tish orasi sirg‘aluvchi δ tovushining XI asrdayoq turli guruhlarda turlicha talaffuz etilishini M.Koshg‘ariy aniq tasvirlagan: o‘g‘uzlarda δ > *y* (*öylä*), qipchoqlarda esa δ > *z* (*özlä* – peshin). Bu *adaq* > *azaq* (oyoq) kabi qipchoq tillarini farqlovchi eng muhim fonetik qonuniyatning ilk yozma isbotidir.

Faslda “Devon”da qipchoqlarga xoslangan *ariq* (oriq), *bal* (asal), *büt*- (tug‘ilmoq, unmoq), *yawlaq* (juda, yomon), *yalıuq* (cho‘ri), *yükünč* (namoz), *učan* (qayiq) kabi leksemalarning etimologik va dialektologik tahlili amalga oshirildi. Ularning ayrimlari (*ariq*, *bal*) bugungi o‘zbek qipchoq shevalarida⁵⁶ to‘liq saqlangan bo‘lsa, *učan* leksemasi XIX asr Xorazm adabiy muhitida (Ogahiyda *o‘t-uchan* – paroxod) yashab kelganligi⁵⁷, *yükünč* (namoz) va *yawlaq* (juda) kabi so‘zlar esa tillararo ta’sir (fors tili ta’siri) natijasida o‘z o‘rnini o‘zlashmalarga yoki boshqa so‘zlarga bo‘shatib bergani asoslandi⁵⁸.

Birinchi bobning uchinchi faslida Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asarining Xorazm vohasi o‘zbek tili qipchoq lahjasi tadqiqidagi ahamiyati lingvotarixiy va etimologik jihatdan yoritilgan. Asar arab tilini o‘rgatishga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, uning tarkibidagi turkiy glossalar (tarjimalar) XII asr Xorazm turkiysining bebaho yozma aksi hisoblanadi. Bu davr tili o‘ziga xos murakkab lisoniy hodisa bo‘lib, unda mintaqaning geografik va tarixiy xususiyatlari tufayli o‘g‘uz va qipchoq unsurlari qorishib ketgan⁵⁹.

Tadqiqotda asar qo‘lyozmalarining tili ko‘chirilgan makon va zamonga qarab dialektal o‘zgarishlarga uchragani ochib berilgan. Xususan, 1367-yili Mamluklar Misrida ko‘chirilgan H.Turxon nusxasi “o‘g‘uzchadan ko‘chirilgan qipchoqcha

⁵² Toprak, F.Divâni lügatit-türk‘te ‘kipçakça’ kaydiyla verilen kelimelerin tarihî kipçak sözvarlığı içindeki yeri. *Türkoloji Dergisi*, 16(2), 2003. – S. 127-140.

⁵³ Махмуд Кошғарий. Девону луғот ит турк. Уч жилдлик. (Нашрга тайёрловчи ва таржимон С.М.Муталлибов). Биринчи том. – Тошкент: ЎЗР ФА нашриёти. – Б. 436.

⁵⁴ Erdal, M. *A Grammar of Old Turkic*. Leiden: Brill, 2004. – P. 145-147.

⁵⁵ Tekin, T. *Turkic Languages: Classification*. London: Routledge, 1995. – P. 74-75.

⁵⁶ Юлдашев Д.Т. Атоқли отларнинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент, 2022. – Б. 88.

⁵⁷ Муҳаммад Ризо Эрнийэзбек ўғли Огахий. Асарлар. 6 жилд. Гулшани давлат. – Тошкент, 2020. – Б. 218.

⁵⁸ Clauson, G. *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*. Oxford, 1972.

⁵⁹ Eckmann, J. *Das Chwarezmtürkische*. In J.Deny et al. (Eds.), *Philologiae Turcicae Fundamenta*, Tomus Primus. – Wiesbaden: Franz Steiner Verlag, 1964. – P. 113-137.

xarakterga ega” ekanligi bilan ajralib turadi. Kotib asl nusxadagi o‘g‘uzcha unsurlarni XIV asr Qohirasida hukmron bo‘lgan qipchoq tili me‘yorlariga moslashtirgan. Bu esa asarning mamluk-qipchoq tilini o‘rganishdagi bevosita o‘rni tasdiqlaydi⁶⁰.

Faslida asar leksikasi zamonaviy o‘zbek qipchoq shevalari bilan qiyosiy-etimologik jihatdan tahlil qilingan. Masalan, asarda qayd etilgan بورک (*böräk*) so‘zi turkiy *bögre-* / *büri-* (‘o‘ramoq, buklamoq’) fe‘llaridan yasalgan bo‘lib⁶¹, uning forscha *xushbira* yoki *dushvara*⁶² (chuchvara) so‘zlariga etimologik aloqasi yo‘qligi dalillangan. Adabiy tildagi forscha “chuchvara”dan farqli o‘laroq, bugungi qipchoq tillari va shevalarida (*bəlesh*, *bərik* kabi variantlarda) xamirdan yasaliy yog‘da pishiriladigan yoki dimlanadigan taomlarga nisbatan aynan *bo‘rak* o‘zagi faol qo‘llanishi o‘zbek qipchoq shevalarining leksik barqarorligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, dissertatsiyada “Muqaddimat ul-adab”dagi turkiy glossalar orasidan qipchoqcha qatlarni ajratib olishning ilmiy-metodologik mezonlari ishlab chiqildi:

1. Mahmud Koshg‘ariy ma‘lumotlari bilan qiyoslash;
2. Keyingi davr Mamluk-qipchoq manbalari (“Kodeks Kumanikus” va b.) bilan solishtirish;
3. Qipchoq tillariga xos qat‘iy fonetik belgilar (*tag‘ > tav*, *azaq*) asosida filtrlash;
4. Ajdodlar ijtimoiy-maishiy hayotiga xos mavzuiy leksikani tahlil qilish.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlandiki, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asari XII asr Xorazm turkiysi leksikasi orqali o‘zbek tili qipchoq lahjalarining tarixiy lug‘at tarkibini, so‘zlar etimologiyasini va shakllanish bosqichlarini rekonstruksiya qilishda tayanch lisoniy manba vazifasini o‘taydi. Bu manbani zamonaviy dialektologik ma‘lumotlar bilan qiyosiy o‘rganish tarixiy leksikologiyamizning ko‘plab muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Ikkinchi bob **“Qipchoq leksikografiyasi: umumiy lug‘atlar va ularning lisoniy xususiyatlari”** deb nomlanib, ikki faslni o‘z ichiga oladi. Bobning **“Kodeks kumanikus’ – o‘zbek tili qipchoq lahjasining tarixiy ildizi sifatida”** deb nomlangan birinchi faslida XIV asrga mansub mazkur yodgorlikning qipchoq tili va o‘zbek shevalari tarixini o‘rganishdagi o‘rni tadqiq etiladi.

Italiyaning Venesiya shahridagi Avliyo Mark kutubxonasida saqlanayotgan⁶³ ushbu nodir qo‘lyozma o‘rta asrlarda Sharqiy Yevropa va Dashti Qipchoqda hukmron mavqega ega bo‘lgan qipchoq-kuman tilining jonli manzarasini aks ettiruvchi yagona lotin grafikali manbadir. G.Kuun va K.Gryonbek⁶⁴ tadqiqotlariga ko‘ra, ikki qismdan (italyancha-forscha-qipchoqcha savdo lug‘ati hamda

⁶⁰ Хақимжонов М. “Муқаддимат-ул-адаб”нинг қўлёзмаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. № 6. – Б. 17.

⁶¹ Clauson, G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford: Clarendon Press, 1972. – P. 360.

⁶² Абаев В. И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Т. 1. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1958. – С. 388.

⁶³ Kuun, Géza. Codex Cumanicus Bibliothecae ad templum divi Marci Venetiarum. – Budapest, 1880. – P. 540.

⁶⁴ Grønbech K. Komanisches Wörterbuch: Türkischer Wortindex zu Codex Cumanicus. – Kopenhagen: Einar Munksgaard, 1942. – P. 230.

nemischa-qipchoqcha missionerlik va diniy matnlar) iborat bu asar o'sha davrdagi qipchoq tilining xalqaro *lingua franca* maqomidan dalolat beradi.

Tadqiqotda "Kodeks kumanikus" (KK) tilining fonetik-morfologik qurilishi hozirgi o'zbek tilining qipchoq shevalari bilan qiyosiy tahlil qilindi va quyidagi barqaror genetik aloqadorliklar aniqlandi:

1. Zetatsizm ($\delta > z$): praturkcha δ (tish orasi d/z) tovushining z ga o'tishi (masalan: *azaq* – oyoq, *qaz* – g'oz, *tiz* – tizza). Bu xususiyat hozirgi o'zbek tilining Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryodagi joychi va qo'ng'iroq qipchoq shevalarida ham aynan z yoki unga moyil talaffuzda uchraydi.

2. Intervokal /y/ (g') tovushining saqlanishi: o'g'uz tilidagi lenitsilashuvdan farqli o'laroq, KKda g' tovushi tushib qolmaydi (*tag'* – tog', *sag'* – sog').

3. Morfologik izoglossalar: jo'nalish kelishigida unli bilan tugagan so'zlarga ham o'g'uzcha -a/-ä emas, qipchoqcha -qa/-ka qo'shilishi (*atqa* – otga); chiqish kelishigining yopiq unlili -din/-tin shakli qo'llanishi (*kózdin* – ko'zdan).

Faslda KKning leksik tarkibi zamonaviy o'zbek tili qipchoq shevalari bilan chog'ishtirilgan. Lug'atda keltirilgan ijtimoiy va maishiy so'zlar o'sha davr tafakkur tarzini aks ettiradi. Masalan, *dominus* (lotincha) – *beg* (qipchoqcha) – *xudo* (forscha) qatoridagi *beg* so'zining etimologiyasi tahlil qilindi. V.Kotvich⁶⁵ uni mo'g'ulcha *begi* bilan bog'lasa-da, J.Klouson va G.Dyorferlar⁶⁶ uni qadimgi eroniy *baga-* (*xudo*, *janob*) o'zagiga borib taqalishini isbotlagan. Shuningdek, lug'atdagi *panis* – *nan* (*non*), *aqua* – *su* (*suv*), *canis* – *it* (*it*) kabi qatorlar asosiy lug'at fondining barqarorligini ko'rsatadi.

O'zbek dialektologiyasida KK uzoq vaqt umumturkiy manba sifatida qarab kelingan bo'lsa-da, zamonaviy izlanishlar⁶⁷ undagi ko'plab noyob unsurlar aynan Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida tirik ekanligini tasdiqlaydi. Chorvachilik terminologiyasida bu yaqqol namoyon bo'ladi: KKdagi *ovlak/oglak* shakli Surxondaryoda *o'laq / uloq; teke* (*taka*), *qoy* (*qo'y*), *siğir* (*Xorazm qipchoq shevalaridagi siyir* shakliga mos), *buzavu* (*Surxondaryo shevalaridagi buzav/buzao'* shakliga aynan mos) kabi so'zlar qipchoq lahjasining KK bilan genetik birligini ko'rsatadi.

Shuningdek, KKdagi *yetmek/ötmek* (*non*) so'zi Qashqadaryoning ayrim qishloqlarida "yupqa xamir ovqat" ma'nosida yashab kelmoqda. KKda *jil* (*yil*) shaklining qo'llanishi esa "j-"lashish hodisasining tirik namunasidir. KKdagi *tag* (*tog'*) so'zining Qashqadaryo shevalarida *tav* ga o'tishi⁶⁸ va "d-"lashishning yo'qligi KK fonetikasining bevosita davomidir. KKdagi maqsad ravishdoshi -*gali* (*körgele*) Surxondaryoda -*g'ali* (*ko'rg'ali*); kelasi zamon -*ajak* (*barajak*) Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida -*jaq* (*barajaq*)⁶⁹ shaklida bugungi kungacha yetib kelgan.

⁶⁵ Kotwicz W. Contributions aux études altaïques... // Rocznik Orientalistyczny. – 1953. – P. 368.

⁶⁶ Clauson, G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford: Clarendon Press, 1972. – P. 322.

⁶⁷ Жўраев Б. Юкори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 160; Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 280.

⁶⁸ Жўраев Б. Ко'rsatilgan asar. – В. 22.

⁶⁹ Ибрагимова У. Қорақалпоғистон Республикаси ўзбек шеваларида сўз ясалиши. – Қарши, 2019. – Б. 12.

Tadqiqotda KKdagi leksemalarning semantik taraqqiyoti ham yoritilgan. Jumladan, *egin* (*egin*) soʻzi KKda “yelka” anatomik maʼnosida qayd etilgan boʻlsa⁷⁰, XV asr eski oʻzbek tilida (Alisher Navoiy ijodida) metaforik usulda “libos” maʼnosida ham qoʻllangan. Bugungi Janubiy Qoraqalpogʻiston shevalarida esa bu soʻz *eyin* shaklida aynan “yelka” maʼnosida saqlangan⁷¹. Shuningdek, *oʻgʻul* (oʻgʻil) soʻzining qadimgi turkiy *oq* (oʻq/urugʻ) oʻzagidan yasalishi⁷² va KKdagi *oyul* shaklining hozirgi qipchoq shevalarida *ovul/uul* ga oʻtish jarayoni (spirantizatsiya) ilmiy asoslangan.

Unli bilan boshlanuvchi oʻzaklarda soʻz boshida *j*- undoshining orttirilishi (proteza) KKda izchil kuzatiladi: *jip* (*ip*), *jilan* (*ilon*)⁷³. Bu holat eski oʻzbek adabiy tili va oʻgʻuz/qarluq lahjalarida uchramaydi, biroq bugungi Jizzax, Qashqadaryo va Qoraqalpogʻistondagi “j-”lovchi oʻzbek shevalarida (*jip*, *jilon*) KKdagi anʼananing bevosita davomi sifatida yashab kelmoqda. Xuddi shunday, KKdagi *ayyz* (ogʻiz soʻti) soʻzining qipchoq shevalarida *avuz* shakliga oʻtishi chorvador xalqlar leksikasidagi fonetik taraqqiyotni namoyish etadi.

Xulosa oʻrnida taʼkidlanadiki, “Kodeks Kumanikus” shunchaki oʻrta asrlar savdo yoki diniy lugʻati emas, balki oʻzbek tili qipchoq lahjasining fonetik ($\delta > z$, *tag > tav*), morfologik (*-gali*, *-din*, *-ajak*) va leksik (chorvachilik, maishiy soʻzlar) bazasini oʻzida mujassam etgan eng ishonchli tarixiy-lisoniy hujjatdir. Uni zamonaviy dialektologik materiallar bilan qiyosiy tadqiq etish oʻzbek tili tarixiy dialektologiyasini yangi faktologik dalillar bilan boyitadi.

Ikkinchi bobning **ikkinchi faslida** “Tarjumoni turkiy va ajamiy va moʻgʻuliy va forsiy” (qisqacha “Tarjumon”) asari qipchoq tili leksik qatlamining mavzuiy tasnifi sifatida tadqiq etildi. XIV asr Mamluk-qipchoq adabiy tilining ushbu qomusiy lugʻati nafaqat lingvistik, balki tarixiy-etnografik manba sifatida ham gʻoyat qimmatlidir. Asar soʻzlarni alfavit emas, mavzuiy guruhlarga ajratgani bilan anʼanaviy lugʻatlardan farq qiladi.

Gollandiyaning Leyden universitetida saqlanayotgan mazkur nodir qoʻlyozma⁷⁴ 1343 yilda Xalil ibn Muhammad ibn Yusuf al-Kunaviy tomonidan yozilgani B.Flemming va boshqa tadqiqotchilar tomonidan ilmiy asoslangan⁷⁵. Asarning tuzilishi muallifning yuksak pedagogik mahoratini koʻrsatadi: u ismlar (otlar), feʼllar hamda grammatika (sarf va nahv) qismlaridan iborat⁷⁶.

Asarning oʻzbek tili tarixi uchun eng qimmatli jihati shundaki, muallif lisoniy dalillarni “turkiy” (sof qipchoq) va “turkman” (oʻgʻuz) lahjalariga aniq ajratib beradi. Masalan, *togʻ* (qipchoqcha) – *dagʻ* (turkmancha), *kel* – *gel* kabi fonetik farqlar XIV asrdayoq turkiy tillarning ikki yirik tarmogʻi oʻrtasidagi chegaralar shakllanib boʻlganini koʻrsatadi.

⁷⁰ Grønbech K. Komanisches Wörterbuch. – Kopenhagen, 1942. – S. 8.

⁷¹ Ўрозов Э. Ю. Жанубий Қорақалпоғистон ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 22.

⁷² Clauson, G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford: Clarendon Press, 1972. – P. 110.

⁷³ Gülensoy T. Türkiye Türkçesindeki Türkçe Sözcüklerin Köken Bilgisi Sözlüğü. – Ankara, 2007. – S. 1087.

⁷⁴ Жафаров Б. С. «Таржумон туркий ва аjamiy ва мўғулий ва форсий» қўлёзмаси хусусида // НамДУ илмий ахборотномаси. – Наманган, 2021. – №12. – Б. 386.

⁷⁵ Сатиев А. «Китаб-и Тарджуман» – алгачкы түрк-араб сөздүктөрүнүн бири // Vestnik Bishkek Humanities University. – Кыргызстан, 2021. – № 56-57. – Б. 148-150.

⁷⁶ Юнусов А. "Таржумон" – XIV аср ёзма обидаси. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 14-18.

Tadqiqotda “Devonu lug‘otit turk” (XI asr) va “Tarjumon” (XIV asr) orasidagi vorislik ornitonimlar (qush nomlari) misolida tahlil qilindi⁷⁷. Masalan, sonqur (shunqor): Koshg‘ariyda *sonqur*, “Tarjumon”da esa *s > sh* (sibilyatsiya) o‘zgarishi orqali *shunqar* shaklida keladi⁷⁸. Bu hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi *shunqor* so‘zining bevosita tarixiy ildizidir.

Tog‘an (dog‘an): XI asrdagi *toğril* o‘rnini XIV asr qipchoq lug‘atlarida *toğan* shakli egallagan.

Qaraqush (burgut): Muallif bu qushning o‘g‘uzcha muqobili *tavšanjil* (quyon ovlovchi) ekanini alohida ta’kidlaydi. Bu atama turkiy mifologiyadagi Qoraqo‘sh totemi bilan uzviy bog‘liqdir.

Kökürçkyn (kabutar): Eski turkiy tildagi bu so‘z “Tarjumon”da *kökärçin / kügärçin* shaklini olgan. Bu o‘zgarish hozirgi o‘zbek qipchoq shevalaridagi *ko‘garchin* talaffuzining fonetik asosidir⁷⁹.

M.T.Xoutsmaning “Tarjumon” grammatikasiga oid tahlillari⁸⁰ asosida so‘z yasaliş tizimi zamonaviy o‘zbek qipchoq shevalari bilan chog‘ishtirildi. Xususan, deminutiv (kichraytirish) va erkalash ma’nosini ifodalovchi *-aq / -ek* affiksi vositasida yasalgan *köşek* (ko‘shak – tuya bolasi) va *qoduq* (xo‘tik) so‘zlari bugungi kunda Xorazm va Janubiy O‘zbekiston qipchoqlari tilida aynan shu shaklda saqlanib qolgan⁸¹. Shuningdek, *-çaq / -çek* qo‘shimchasi yordamida yasalgan *kelinçek* (kelinchak) va kasb-hunar nomini yasovchi *-çi / -ci* (*yırlayıcı* – yirlovchi/baxshi) shakllari ham o‘zbek shevalarida faoldir. Shuningdek, M.Xoutsma alohida qayd etgan *-ğuç / -güç* qo‘shimchasi orqali asbob nomlarining yasaliş (*açquç* – ochqich, *töggüç* – tuygich) o‘g‘uz lahjasidagi *-ar / -er* (*achar*) shaklidan farqli o‘laroq, aynan qipchoq tipidagi tillar, xususan, o‘zbek tili uchun xosligi isbotlandi.

Faslda “Tarjumon” lug‘atidagi qator leksemalarning Xorazm va Qoraqalpog‘iston qipchoq shevalaridagi (Gurlan, Mang‘it, Qo‘ng‘irot) reflekslari (in‘ikosi) qiyosiy-tarixiy jihatdan tahlil qilindi. Jumladan, *dönan* (to‘rt yashar ot) so‘zi Xorazm shevalarida *dönän / do‘na* shaklida; *qısqraq* (biya) so‘zi esa Mang‘it shevasida *qısqraq* shaklida o‘z semantikasini asrlar davomida o‘zgartirmasdan saqlab kelayotgani dalillandi. Asardagi *yağlıq* (ro‘mol) so‘zining zamonaviy shevalarda *djavlıq* (javliq) shakliga o‘tishi esa tarixiy *y- > j-* (j-lashish) fonetik qonuniyatining tirik namunasi.

“Tarjumoni turkiy” asari shunchaki o‘lik lug‘at emas, balki Markaziy Osiyoning shimoli-g‘arbiy qismida yashovchi qipchoq lahjasi vakillari nutqida bugun ham yashab kelayotgan *ko‘shak, do‘nan, burunliq, javliq, tuygich* kabi yuzlab so‘zlarning tarixiy asosidir. Bu manbani zamonaviy dialektologik faktlar bilan qiyoslash o‘zbek tili tarixiy leksikologiyasini o‘rganishda eng to‘g‘ri va ilmiy asoslangan metodologik yo‘l hisoblanadi.

⁷⁷ Абдушукуров Б. «Девону луғотит турк»даги айрим орнитонимлар таҳлили. – Тошкент, 2024. – Б. 83.

⁷⁸ Абдушукуров Б. Ко‘rsatilgan manba. – В. 84.

⁷⁹ Снесарев Г. П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. – Урганч, 2018. – Б. 74.

⁸⁰ Houtsma M. Th. Ein Türkisch-Arabisches Glossar. – Leiden: E.J. Brill, 1894. – S. 18.

⁸¹ Alimova Sh. M. Xorazm qipchoq shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari. – Urganch, 2023. – B. 129.

Ikkinchi bobning **uchinchi faslida** Asir ad-Din Abu Hayyon al-Andalusiyning “Kitob al-idrok li-lison al-atrok” (1312) asari qipchoq tilshunosligining fundamental manbasi sifatida tadqiq etildi. Amaliy maqsadda tuzilgan boshqa lug‘atlardan farqli o‘laroq, bu asar o‘rta asrlar turkiy tilining fonetik, morfologik va leksik qurilishini arab tilshunosligi an‘analari asosida tizimli tadqiq etgan ilk akademik grammatika va izohli lug‘atdir⁸².

Tadqiqotda asarning A.Jafaroo‘g‘li (1931) va R.Ermers (1999) tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tanqidiy nashrlari⁸³ qiyosiy o‘rganildi. Asarning o‘zbek tili tarixiy dialektologiyasi uchun eng muhim jihati shundaki, Abu Hayyon turkiy tilni lingvistik stratifikatsiya (qatlamlashtirish) usulida uchga: *at-turk* (umumadabiy til), *al-qifjoqiy* (sof qipchoqcha) va *at-turkmaniy* (o‘g‘uzcha) lahjalarga aniq ajratib beradi. Muallif tomonidan qayd etilgan *t ~ d* (qipch. *tag‘* – o‘g‘uz. *dag‘*), *k ~ g* (*kel* – *gel*), *b ~ v* (*sebmek* – *sevmek*) kabi fonetik almashinuvlar⁸⁴ bugungi kunda O‘zbekiston hududidagi qipchoq va o‘g‘uz shevalari o‘rtasidagi til chegaralarini (izoglossalarni) belgilashda tayanch vazifasini o‘taydi.

Faslida “Kitob al-idrok”dagi so‘z yasash modellari zamonaviy o‘zbek qipchoq shevalari bilan chog‘ishtirildi. Xususan, asardagi deminutiv *-çaq / -çek* (o‘g‘ilchaq), kasb-hunar yasovchi *-man* (*közman* – soqchi) va sifatdoshning otlashuvi *-miş* (*otruluş*) ko‘rsatkichlari⁸⁵. F.Abdullayev tomonidan Xorazm shevalarida qayd etilgan *tupchik* (kenja), *dinkaman* (baquvvat), *qirmish* (taom turi) kabi so‘zlarda⁸⁶ jonli ravishda saqlanib qolgani dalillandi. Shuningdek, asardagi *kicit* (kechuv)⁸⁷, *ciganaq* (chig‘anoq – tirsak), *cuwalduz* (juvoldiz), *kamulduruk* (ko‘mildiriq) kabi nodir leksemalar, shuningdek, kelasi zamon inkor shaklidagi *kal-ma-s-man* (kelmasman) grammatik qurilmasining bugungi Jizzax, Qashqadaryo va Xorazm qipchoqlari nutqida faol ishlatilishi mazkur manbaning o‘zbek tili bilan uzviy genetik aloqasini tasdiqlaydi.

Bobning **to‘rtinchi faslida** esa XIV asrga mansub “Kitob ad-durra al-mudiya fi-l-lug‘ati-t-turkiya” asarining mamluk-qipchoq tili va o‘zbek shevalari tarixini o‘rganishdagi o‘rni tahlil qilindi. A.Zayonchkovskiy tomonidan Florensiyadan topilgan⁸⁸ mazkur asar boshqa lug‘atlardan o‘zining 24-bobi – sof so‘zlashuv jummalari (so‘zlashgich)ga ajratilgani bilan farq qiladi.

Tadqiqotda asarning ikki xil: qipchoq (Florensiya) va o‘g‘uz (Turk til akademiyasi) nusxalari qiyosiy o‘rganildi⁸⁹. Asar tilida kuzatiladigan “y-”lovchilik

⁸² Расулова Н. А. Исследование языка «Китаб ал-идрак ли-л-исан ал-атрак» Абу Хайяна. – Ташкент, 1969. – С. 14-16.

⁸³ Caferoğlu A. Kitâb al-İdrâk li-Lisân al-Atrâk. – İstanbul, 1931. – S. 12-18; Ermers, Robert. Arabic Grammars of Turkic. – Leiden: Brill, 1999. – P. 312.

⁸⁴ Doğan, Yusuf. Kitâbu'l-İdrâk li-lisâni'l-Etrâk'ın Dilbilim Açısından İncelenmesi // Cumhuriyet İlahiyat Dergisi. – 2016. – S. 333.

⁸⁵ Есбосынов Е. З. «Китаб эл-Идрак ли-л-исан эл-Атрак»... // ҚазҰУ хабаршысы. – Алматы, 2017. – Б. 141-146.

⁸⁶ Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961. – Б. 316.

⁸⁷ Ermers, Robert. Arabic Grammars of Turkic. – Leiden: Brill, 1999. – P. 312.

⁸⁸ Zajaczkowski A. Chapitres choisies du Vocabulaire arabe-kiptchak "ad-Durrat al-mudi'a..." // Rocznik Orientalistyczny. – Warszawa, 1965. – P. 19-20.

⁸⁹ İshak bin Murad. Eski Oğuzca Sözlük-Gramer Arası Bir Eser. – Ankara, 2004; Yılmaz R. Ed-Dürretü'l-Mudiyye... Kıpçak ve Oğuz Nüshalarındaki Bazı Arkaik Kelimeler // Din ve Bilim. – 2022. – S. 310-341.

(proteza: *yilan* – ilon, *yit* – yo‘qolmoq)⁹⁰ va *ch* ~ *sh* almashinuvi (*qaç* ~ *qaş* – qochmoq) bugungi kunda Xorazm, Qashqadaryo va Janubiy Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalaridagi *yilon*, *yip*, *qashdi* kabi talaffuz me‘yorlarining tarixiy poydevori ekanligi isbotlandi.

“Ad-Durra” lug‘atidagi kosmogonik va tabiiy leksika (Tañrı, küneş, yağmur, qar, buz, tağ) tahlili shuni ko‘rsatadiki, qipchoq nusxasidagi *küneş* (quyosh) so‘zi bugungi shevalarda *kungay* (quyoshli joy) ma‘nosida; *yağmur* so‘zi esa Jizzax va Xorazmda *jao‘in* / *yag‘mur* shaklida; *tağ* (tog‘) leksemasi *t-* va *-g‘* tovushlarining barqarorligi hisobiga Surxondaryo shevalaridagi *tav* shaklining bevosita o‘zagi sifatida yashab kelmoqda.

Uchinchi bob “O‘zbek tili qipchoq lahjasining tarixiy grammatikasi va sohaviy leksikasini aks ettiruvchi yozma yodgorliklar tadqiqi” deb nomlanib, ikki faslni o‘z ichiga oladi. Bobning “Mamluk-qipchoq grammatik risolalarining o‘zbek tili tarixiy dialektologiyasidagi o‘rni va lisoniy-tuzilmaviy xususiyatlari” nomli birinchi faslida XIV asr arab tilidagi turkiy grammatikalarning qipchoq lahjasi tarixini tiklashdagi o‘rni tadqiq qilindi.

Turkologiyada eski turkiy til, xususan, mamluk-qipchoq tili xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan “Tarjumon”, Ibn Muhanno lug‘ati, Abu Hayyonning “Kitob al-idrok” va “At-tuhfatu-z-zakiyya” asarlari nafaqat amaliy lug‘at, balki mukammal grammatik risolalar sifatida baholanadi. A.I.Chaykovskayaning ta’kidlashicha, bu arabzabon grammatikalar turkiy til faktlarini sun‘iy ravishda arab qoliplariga solmagan, balki turkiy tilning ichki tabiatini, jumladan, singarmonizm va agglyutinatsiyani to‘g‘ri aks ettirgan⁹¹.

Tadqiqotda Abu Hayyon al-Andalusiyning “Kitob al-idrok” asari qiyosiy tahlilga tortildi. Muallifning eng katta xizmati shundaki, u turkiy tilni lingvistik stratifikatsiya usulida uchga: *at-turk* (umumadabiy til), *al-qifjoqiy* (sof qipchoqcha) va *at-turkmaniy* (o‘g‘uzcha) lahjalarga aniq ajratib bergan⁹². Abu Hayyon qayd etgan *t ~ d* (qipch. *tag‘* – o‘g‘uz. *dag‘*) va *k ~ g* (*kel* – *gel*) fonetik almashinuvlari bevosita bugungi O‘zbekiston hududidagi shevalar chegarasini ko‘rsatadi. Xususan, Xorazm o‘g‘uz shevalaridagi *dag‘*, *dil* shakllari hamda Qashqadaryo va Surxondaryoning qipchoq shevalaridagi *tog‘*, *til* talaffuzlari aynan shu XIV asr grammatik me‘yorlarining tarixiy davomidir.

Shuningdek, faslda R.Ermers⁹³ transkripsiyasi asosida “Kitob al-idrok”dagi so‘z yasaliş modellari zamonaviy o‘zbek qipchoq shevalari bilan chog‘ishtirildi. Xususan, asardagi deminutiv *-çaq* / *-çek* (o‘g‘ilchaq), kasb-hunar yasovchi *-man* (*közman* – soqchi) va asbob nomlarini yasovchi *-ğuç* affikslari⁹⁴ F.Abdullayev tomonidan Xorazm shevalarida qayd etilgan *tupchik* (kenja), *dinkaman* (baquvvat), *betsipirg‘ich* (sochiq) kabi so‘zlarda jonli ravishda saqlanib qolgani dalillandi. Asardagi *ciganaq* (chig‘anoq), *cuwalduz* (juvoldiz) kabi nodir leksemalar,

⁹⁰ Balci O. Ed-Dürretü'l-Mudiyye... Görülen İki İmla Özelliği // Dil ve Edebiyat Dergisi. – Ankara, 2018. – 46.

⁹¹ Чайковская, А. И. Об арабоязычных грамматиках старотюркского языка // Советская тюркология. – Баку, 1976. – № 6. – С. 78-80.

⁹² Doğan, Yusuf. Kitâbu'l-İdrâk li-lisâni'l-Etrâk'ın Dilbilim Açısından İncelenmesi // Cumhuriyet İlahiyat Dergisi. – 2016. – S. 333.

⁹³ Ermers, Robert. Arabic Grammars of Turkic... – Leiden: Brill, 1999. – P. 312.

⁹⁴ Есбосынов Е. З. «Китаб эл-Идрак...» // ҚазҰУ хабаршысы. – 2017. – Б. 141-146.

shuningdek, kelasi zamon inkor shaklidagi *kal-ma-s-man* (kelmasman) grammatik qurilmasining bugungi Jizzax va Xorazm qipchoqlari nutqida faol ishlatilishi mazkur manbaning o‘zbek tili bilan uzviy genetik aloqasini tasdiqlaydi.

Faslda mamluk-qipchoq tilshunosligining cho‘qqisi sanalgan “Kitob at-tuhfatu-z-zakiyya fi-l-lug‘ati-t-turkiya” asariga alohida urg‘u berildi⁹⁵. E.I.Fozilov tomonidan chuqur tadqiq etilgan⁹⁶ ushbu nodir manba qipchoq lahjasining fonetik va morfologik qurilishini mukammal yoritib beradi.

“At-tuhfa”ning morfologik tizimi hozirgi o‘zbek tili qipchoq shevalarining bevosita tarixiy bazasi (prototipi) ekanligi quyidagi dalillar bilan isbotlandi:

1. Kelishik tizimi: asarda qaratqich kelishigining qat‘iy singarmonizmga bo‘ysunuvchi *-niñ/-niñ* shakli va chiqish kelishigining yopiq unlili *-din/-din* shakli (mas., *yerdin*) qo‘llanishi bugungi Janubiy Qoraqalpog‘iston va Xorazm qipchoq shevalaridagi me‘yorlarga to‘la mos keladi⁹⁷.

2. Fe‘l shakllarining rivoji: “At-tuhfa”da qayd etilgan hozirgi zamonning murakkab *-a+dur / -y+dur* (*aladurbiz – olyapmiz/oladurbiz*) ko‘rsatkichi bugungi o‘zbek adabiy tilidagi *-yapti* va Xorazm shevasidagi *-yotir* shakllarining tarixiy negizidir. Shuningdek, doimiy harakatni bildiruvchi *-ağan / -egen* (*kelegen – kelagan, içegen – ichagan*) va payt ravishdoshi *-qaş / -geş* (*kelgeş – kelgach*) affikslari bugungi Qashqadaryo va Surxondaryodagi “j”-lovchi qipchoq shevalarida aynan shu shaklda (*borag‘an, kelgach*) jonli saqlanib qolgan.

Dissertatsiyada A.Bo‘ronov tadqiqotlariga tayangan holda⁹⁸, “At-tuhfa” asarining S.Mutallibov tomonidan amalga oshirilgan tarjimasidagi ayrim noaniqliklar tuzatildi va ularning bugungi qipchoq shevalaridagi reflekslari (in‘ikosi) ko‘rsatib berildi. Xususan, *kichi* (*kichik*): asarda *kichi* shaklida kelgan so‘z avvalgi tarjimalarda yanglish holda *kishi* (*odam*) deb izohlangan. Aslida, Surxondaryo va Qashqadaryo qipchoq shevalarida “kichik” so‘zi bugun ham aynan *kichi* (*kichi bola*) shaklida talaffuz qilinadi.

Tamaqsav (*ochko‘z*): “Tamog‘ini o‘ylaydigan” ma‘nosidagi bu so‘z shevalardagi *tamoqsav* (tekinxo‘r) leksemasining bevosita tarixiy shaklidir. Shuningdek, Ibn Muhanning “Tarjumon” lug‘atida tillar o‘rtasidagi leksik almashinuv (o‘zlashma so‘zlar) haqidagi ilg‘or qarashlar tahlil qilindi. Muallifning “turklar o‘zlarida kam uchraydigan narsalar uchun forslardan so‘z oladilar” degan xulosasi⁹⁹ bugungi kundagi lisoniy kontaktlar va ekstralingvistik omillarni o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlandiki, Mamluk-qipchoq davri grammatik risolalari, xususan, “At-tuhfa” va “Kitob al-idrok” asarlari shunchaki o‘rta asrlarning tarixiy yodgorligi emas. Ular o‘zbek tili qipchoq lahjasining fonetik qonuniyatlari (*singarmonizm, j-lovchilik*), morfologik tizimi (*-niñ, -din, -ağan*) va boy leksik

⁹⁵ Aubakirova, K. et al. Written Manuscripts in Ancient Kipchak Language... // Mediterranean Journal of Social Sciences. – Rome, 2015. – P. 575

⁹⁶ “At-tuhfa”... Введение, лексико-грамматический очерк Фазылова Э.И. и Зияевой М.Т. – Ташкент, 1978. – С. 232.

⁹⁷ Fazilov, E. İ. "Et-Tuhfe"nin Elyazması ve Dili Üzerine Notlar // Gazi Türkiyat. – 2014. – S. 206.

⁹⁸ Бўронов, А. “At-tuhfa”: китоб бўйича олимлар баҳси нега 8 асрдан буён тугамади? // Oyina.uz. – 2024. <https://oyina.uz/kiril/article/1424>

⁹⁹ Мелиоранский П.М. Араб-филолог о турецком языке. – СПб., 1900. – С. 243.

qatlarning genezisini o'zida mujassam etgan fundamental manbalardir. Bu manbalarni zamonaviy o'zbek dialektologiyasi dalillari bilan qiyoslash eski o'zbek tili grammatikasi va qipchoq lahjalari tarixini uzluksiz zanjir sifatida qayta tiklash imkonini beradi.

Bobning ikkinchi faslida **“Kitobu bulg‘at al-mushtoq fi lug‘ati-t-turk v-al-qipchoq”** asari tadqiq etilgan. Jamoliddin at-Turkiy qalamiga mansub ushbu asar XIV asr Oltin O‘rda va Mamluklar davlati o‘rtasidagi madaniy aloqalar mahsuli hisoblanadi. A.Zayonchkovskiy¹⁰⁰ va Sh.Fayzullayeva¹⁰¹ tadqiqotlarida asarning leksik qatlami qipchoq-o‘g‘uz asosi sifatida baholangan.

Dissertatsiyada “Bulg‘at al-mushtoq”ning fonetik qurilishi tahlil qilinib, unda singarmonizm (ham lab, ham tanglay uyg‘unligi) qat‘iy amal qilishi aniqlandi. Masalan, *bulut*, *tütün*, *altun* kabi so‘zlarda lablangan unilarning, *jylan*, *baqyr* kabi so‘zlarda esa orqa qator unilarning uyg‘unligi kuzatiladi. Bu holat hozirgi o‘zbek tilining qipchoq shevalari (qo‘ng‘irot, qatag‘on) vokalizmiga to‘liq mos keladi.

Shuningdek, asarda so‘z boshida *j-* (*y*) undoshining faol qo‘llanilishi (*jer* – yer, *jyl* – yil, *jylan* – ilon) uning qipchoq tipidagi til ekanligini tasdiqlaydi. Bu xususiyat o‘g‘uz guruhi tillarida kuzatilmaydi va hozirgi o‘zbek tilining *j*-lovchi qipchoq shevalarini adabiy tildan ajratib turuvchi muhim belgidir. E.O‘rozovning tadqiqotlari ham bu hududdagi *j*-lovchi shevalarning tarixiy ildizlari aynan Oltin O‘rda davri tiliga borib taqalishini tasdiqlaydi.

Yodgorlik leksikasi mavzuiy guruhlariga ajratib o‘rganildi. *Qujas* (quyosh), *colpan* (Cho‘lpon), *jaymur* (yomg‘ir) kabi kosmogonik atamalar; *qojun* (qo‘y), *buzavu* (buzoq), *çypçaq* (chumchuq) kabi zoonimlar; *ana* (ona), *qajn ata* (qaynota) kabi qarindoshlik terminlari; *ceri* (qo‘shin), *jav* (yov) kabi harbiy atamalar tahlil qilindi. Bu so‘zlarning 90% dan ortig‘i bugungi o‘zbek tilida faol qo‘llanilishi yoki shevalarda saqlanib qolgan tilimizning tarixiy ildizlari naqadar baquvvat ekanidan dalolat beradi.

Bobning **“Baytarat ul-vozih’ asari va uning o‘zbek tili qipchoq lahjasini o‘rganishdagi o‘rni”** nomli uchinchi faslida XIV asrga mansub sohaviy (veterinariya va ippologiya) yodgorlik tadqiq etildi. Mamluk Misrida harbiy san‘at (*furusiyaa*) va otchilikka bo‘lgan yuksak e‘tibor natijasida yaratilgan bu asar¹⁰² nafaqat harbiy qo‘llanma, balki turkiy xalqlar etnografiyasi va xo‘jalik hayotini o‘rganishda bebaho manbadir. E.Esinning ta‘kidlashicha, turkiylar uchun “hayot – ot demakdir” va bu an‘ana Mamluklar davlatida ham izchil davom ettirilgan¹⁰³.

Tadqiqotda asar nomidagi *baytara* (بَيْطَرَة) atamasining etimologiyasi yunoncha *hippiatros* (ot tabibi) so‘zining arab tiliga o‘zlashib, morfologik moslashuvi (*b-y-t-r* o‘zagi) orqali shakllangani ilmiy asoslandi¹⁰⁴.

¹⁰⁰ Zajaczkowski A. Vocabulaire arabe-kiptchak. Bulgat al-mustaq fi lugat at-turk wa-l-qifzaq. – Warszawa, 1958. – P. 192.

¹⁰¹ Файзуллаева Ш. А. Исследование языка памятника XIV в. «Китабу Булгат аль-Муштак фи лугат ат-турк ва-л Кыфчак»: Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент: 1969. – С. 180.

¹⁰² Eckmann, Janos. "The Mamluk-Kipchak Literature" // Central Asiatic Journal. – Vol. VIII. – Wiesbaden, 1963. – P. 304-319.

¹⁰³ Esin, Emel. "The Horse in Turkic Art" // Central Asiatic Journal. – 1965. – P. 167

¹⁰⁴ Ан-Наим ул-кабир: Арабча-ўзбекча лугат. – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2021. – Б. 70.

Turk olimi J.O'zгур tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan asarning ikkita asosiy nusxasi (Istanbul – sof qipchoq va Parij – o'g'uzlashgan nusxa) qiyosiy o'rganildi¹⁰⁵. Bu nusxalar qiyosi bugungi o'zbek tilining qipchoq va o'g'uz (Xorazm) lahjalari o'rtasidagi tarixiy chegaralarni aniqlashda muhimdir. Qipchoq nusxasidagi *sınır* (pay, tomir), *tırnaq* (tuyoq), *yagır* (yag'ir), shuningdek, so'z boshidagi *t-*ning saqlanishi (*tiş*) va "q-"lashish (*qayda*) bugungi Qashqadaryo va Surxondaryo shevalaridagi lisoniy hodisalarning aynan o'zidir¹⁰⁶.

Sh.Hasanli-G'aribovanning xulosalariga tayangan holda¹⁰⁷, asarning sohaviy leksikasi va ilmiy bayon uslubi tahlil qilindi. "Baytarat ul-vozih"dagi kelishik tizimining qat'iy singarmonizmga bo'ysunishi (*-niñ/-niñ* qaratqich, yopiq unlili - *din/-din* chiqish kelishigi) hozirgi Qoraqalpog'iston va O'zbekiston qipchoq shevalarining morfologik me'yorlariga to'liq mos keladi¹⁰⁸. Shuningdek, N.Mahmudov tomonidan tadqiq etilgan o'zbek ipponimiyasi (otchilik terminologiyasi)¹⁰⁹ asosida asardagi otning yoshiga (*qulun, tay, ğunan, dōnan, baytal*) va tusiga (*toriq, saman, burul, çavkar*) oid yuzlab atamalarning bugungi kungacha hech qanday o'zgarishsiz yetib kelgani isbotlandi.

"Kitob al-idrok" va "Baytarat ul-vozih" kabi filologik va sohaviy manbalar eski o'zbek tili qipchoq qatlamining nafaqat so'zlashuv vositasi, balki murakkab ilmiy-texnik tushunchalarni tizimli ifodalashga qodir bo'lgan barqaror funksional fan tili darajasiga ko'tarilganini tasdiqlaydi. Ularni zamonaviy dialektologik dalillar bilan solishtirish tarixiy leksikologiyamiz va grammatologiyamizni yangi bosqichga olib chiqadi.

XULOSA

1. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari qipchoq tilining ilk tavsifiy manbasi bo'lib, unda qayd etilgan intervokal /y/ (g') tovushining saqlanishi (qipchoqcha *tag'* – o'g'uzcha *dag'/da:*) va praturkcha δ (tish orasi *d/z*) tovushining *z* ga o'tishi kabi fonetik qonuniyatlar qipchoq lahjasining boshqa turkiy tillardan farqlovchi eng qadimgi barqaror belgilari (izoglossalari) ekanligi ilmiy dalillandi.

2. Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddimat ul-adab" asaridagi turkiy glossalar tahlili shuni ko'rsatdiki, XII asr Xorazm turkiysi sof bir lahjaga emas, balki qipchoq va o'g'uz unsurlari qorishgan lisoniy konvergensiya asoslangan. Ushbu asar hozirgi Xorazm vohasi qipchoq va o'g'uz shevalari tutashgan hududlardagi til xususiyatlarini rekonstruksiya qilishda beqiyos ahamiyatga ega.

3. XIV asr Mamluk davlati muhitida yaratilgan turkiy lug'atlar tuzilishiga ko'ra ikki guruhga: mavzuiy-ideografik ("Tarjumon", "Ad-Durra", "Bulg'at") hamda alifbo tartibidagi izohli ("Kitob al-idrok") lug'atlarga ajralishi asoslandi. Ushbu asarlar arab tilshunosligi qoliplarini turkiy tilga sun'iy ravishda

¹⁰⁵ Özgür, Can. Baytaratü'l-Vazih'in Kıpçakça ve Türkmençe Yazmalarına Göre... – İstanbul, 1994. – S. 4-5.

¹⁰⁶ Bodrogligeti, A. "The Medical Terminology in the Kitāb Baytarat al-Vāziḥ" // TDED. – İstanbul, 1973. – S. 115-125.

¹⁰⁷ Həsənli-Qəribova, Şəbnəm. Türk dillərində elmi üslubun inkişafının tarixi qaynaqları. – Bakı: "Elm", 2019. – S. 144.

¹⁰⁸ Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 85-88.

¹⁰⁹ Mahmudov N. Çağdaş Özbek Dilindeki Atçılık Terimleri. – İstanbul, 1995. – S. 158.

ko‘chirmasdan, balki tilning ichki tabiatini, singarmonizm va agglyutinatsiya hodisalarini obyektiv aks ettirgan.

4. O‘rta asrlar filologik manbalarida turkiy til leksikasi ongli ravishda “*turkiy/qipchoq*” (sof qipchoq) va “*turkman*” (o‘g‘uz) qatlamlariga ajratib izohlangan. Bu omil XIV asrdayoq turkiy tillarning shimoliy va g‘arbiy guruhlari o‘rtasidagi chegaralar qat‘iylashganini hamda bugungi O‘zbekiston hududidagi qipchoq va o‘g‘uz shevalari tizimi aynan shu davr lisoniy taraqqiyotining bevosita davomi ekanini tasdiqlaydi.

5. “Kodeks Kumanikus” va qipchoq lug‘atlarida qayd etilgan so‘z boshidagi lab undoshlarining almashinuvi hamda unli bilan boshlanuvchi o‘zaklarda *j-* va *y-* protezasi bugungi kunda Janubiy Qoraqalpog‘iston, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi “*j*”-lovchi va “*y*”-lovchi o‘zbek shevalarining tarixiy fonetik negizi hisoblanadi.

6. “At-tuhfatu-z-zakiyya”, “Baytarat ul-vozih” kabi asarlarning morfologik tahlili natijasida qaratqich kelishigining qat‘iy singarmonizmga bo‘ysunuvchi *-niñ / -niñ* shakli, chiqish kelishigining *-din / -din* hamda deminutiv (kichraytirish) *-çaq / -çek, -ğuç / -giç* affikslari hozirgi qipchoq shevalarida relikt (qoldiq) holda o‘zgarishsiz saqlanib qolganligi o‘z isbotini topdi.

7. Grammatik risolalarda qayd etilgan maqsad ravishdoshining *-g‘ali / -geli* affiksi, hozirgi zamonning murakkab *-a+dur* (oladur) hamda doimiylikni bildiruvchi *-ağan / -egen* (borag‘an) ko‘rsatkichlari eski o‘zbek tili qipchoq qatlamining sof morfologik ixtirolari ekanligi hamda ular adabiy tildan farqli o‘laroq janubiy qipchoq shevalarida bugun ham faol ekanligi ayon bo‘ldi.

8. Arxaik leksika (ornitonimlar, zoonimlar, maishiy atamalar) tahlili shuni ko‘rsatdiki, adabiy tilda forsiy yoki arabiy o‘zlashmalarga almashtirilgan yuzlab tub turkiy leksemalar (*tamaqsav, kichi, ko‘kchak, do‘nan, ko‘mildiriq, chig‘anaq, juvoldiz*) bugungi o‘zbek qipchoq shevalarida asl fonetik va semantik ko‘lamida barqaror yashab kelmoqda.

9. Mamluk davrida yaratilgan veterinariya, ippologiya (otshunoslik) va harbiy san‘atga oid sohaviy asarlar (“Baytarat ul-vozih”, “Munyat ul-g‘uzot”) eski o‘zbek tilining qipchoq qatlami faqatgina maishiy so‘zlashuv vositasi bo‘lmay, balki murakkab tibbiy, anatomik va harbiy tushunchalarni tizimli ifodalashga qodir bo‘lgan ilmiy uslubga ega ekanligini namoyish etadi.

10. Maxsus terminologiyaga oid manbalar tahlili natijasida o‘zbek tilidagi otning yoshi, tusi va tana a‘zolariga (*sinir, tirnaq, bez, yag‘ir*) oid atamalarning mutlaq ko‘pchiligi tarixiy-etimologik jihatdan XIV asr manbalariga borib taqalishi hamda xalq tilida qat‘iy konservativligini saqlab qolgani aniqlandi.

11. XI–XV asrlar filologik va sohaviy yodgorliklari tili o‘lik til emas, balki bugungi o‘zbek tili qipchoq lahjalarining qon tomiridir. Ularning umumiy lingvistik va dialektologik tahlili milliy tilimizning tarixiy taraqqiyot zanjirini uzluksiz tiklash, yo‘qolgan o‘z qatlam so‘zlari hisobiga zamonaviy lug‘atimizni boyitish hamda o‘zbek dialektologiyasining tarixiy xaritasini aniq chizib berish imkonini yaratadi.

SCIENTIFIC COUNCIL DSc.05/2025.27.12.Fil.15.03
AT THE INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE AND
FOLKLORE OF THE ACADEMY OF SCIENCES IN UZBEKISTAN
URGENCH STATE UNIVERSITY NAMED AFTER
ABU RAYHAN BIRUNI

ASHYROV ODILBEK MAKHSUDOVICH

THE SOURCES OF UZBEK CLASSICAL PHILOLOGY ON THE
RESEARCH OF THE KYPCHAK DIALECT

10.00.01 – the Uzbek language

DISSERTATION ABSTRACT
OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY(PhD)
ON PHILOLOGICAL SCIENCES

Tashkent – 2026

The theme of the Dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy is registered by the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2025.4.PhD/Fil.6695

The dissertation was completed at Urganch State University named after Abu Rayhon Biruni.

The dissertation abstract is published in three languages (Uzbek, English, Russian (résumé)) on the Scientific Council's website (www.tai.uz) and the "Ziyonet" information-education portal (www.ziyonet.uz)

Scientific consultant:

Nurjanov Oybek Erkin oghli

Doctor of Philosophy in Philology science,
docent

Official opponents:

Orazbayev Abdulla Durdibayevich
Doctor of Science in Philology, professor

Yusufov Berdakh

Candidate of Philology science, professor


Leading organization:

National university of Uzbekistan

The dissertation defense will be held on on "17" June 2026 at 16⁰⁰ at the session of the Scientific Council DSc.05/2025.27.12.Fil.15.03 under the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. (Address: 100060, Tashkent city, St. Shahrizabz 5. Tel: (871) 233-36-50, Fax: (871) 233-71-44. E-mail: uztafi@academy.uz)

The dissertation is available at the Fundamental Library of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (Register protocol on "38" _____).
Address: 700100, Tashkent city, St. Ziyolilar13. Tel: (871) 262-74-58.

The dissertation abstract was distributed on "3" June 2026. (Registry certificate No. 5 dated "3"- June 2026)



N.M.Mahmudov

Chairman of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor of
Science in Philology, Professor

A.M.Hasanov

Scientific Secretary of the Scientific
Council awarding scientific degrees,
Doctor of Science in Philology, (DSc)

D.S.Khudoyberganova

Chairman of the Scientific Seminar at
the Scientific Council awarding scientific
degrees, Doctor of Science in Philology,
Professor

INTRODUCTION

(Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation)

The actuality and necessity of the dissertation topic. The comparative-historical and source study of the Turkic languages has always been of great importance in world linguistics. In particular, the study of the linguistic nature of ancient and medieval written monuments, which determine the historical roots of languages, their stages of development, and their role in preserving the identity of languages, shows the significance of languages in preserving their uniqueness. A large-scale scientific research is carried out not in a general way all over in the world of Turkology, but in the framework of specific dialects, in particular, the Kypchak dialect, to determine the processes of their historical integration with other languages (for example, Oghuz languages). It is important to highlight the lexical and grammatical features of philological and sectoral sources created in the 11th-15th centuries.

In world linguistics, research has been conducted on the study of Turkic languages from a historical-comparative perspective. These studies have provided information about Turkic languages, including Uzbek and the Altai language, their dialectal historical development and genesis, presented scientific conclusions on the general stages of development of these languages, and identified their distinctive features. Studying the Kipchak dialect of the Uzbek language and the lexicon of the Altai language, generalizing the linguistic characteristics of the period on this basis, determining developmental stages, analyzing functional-semantic and paradigmatic relations between lexemes, and distinguishing their specific features are of great significance.

Today, in the Republic of Uzbekistan, the study of the historical stages of the development of our national language and the role of vernaculars and dialects in its formation has been elevated to the level of state policy. “In the context of globalization, preserving the purity of our national language, increasing its vocabulary, creating Uzbek alternatives to modern terms in various fields, and ensuring their single version of use are urgent tasks.¹¹⁰” The Kypchak dialect plays an important role in the historical dialectology and source studies of the Uzbek language. However, the history of the Uzbek language, especially despite the fact that many unique philological and sectoral written monuments were created in Kypchak dialects during the Mamluk period (13th-15th centuries) its genetic relationship with the Kypchak layer, has not been sufficiently studied in a monographic plan yet. In this sense, a comparative-historical study of sources related to the study of the Kypchak dialect in Uzbek classical philology, contrastive study of their linguistic features with modern Uzbek dialects, highlighting the etymology of field terms provides a solid basis for enriching the history of our

¹¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 21 октябрдаги ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг 30 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // «Халқ сўзи» газетаси. 218 (7448)-сон. – Тошкент, 2019. – 22 октябрь.

national linguistics and historical resource-keeping. This determines the relevance and necessity of the research topic.

This research aligns with the objectives outlined in a number of official documents and legal acts, including: the decrees of the president of the Republic of Uzbekistan dated October 21, 2019 No. PF-5850 “On measures to increase completely the prestige and position of the Uzbek language as a state language”, PF-6084 of October 20, 2020 “On measures to further develop the Uzbek language and improve language policy in our country“, PQ-2909 of April 20, 2017 “On measures to further develop the higher education system”, PQ-4633 of March 9, 2020 “On measures to further improve the regulatory framework for the development of Research investigations and innovative activities”, and the decree No. 139 by the Cabinet of Ministers Resolution of March 11, 2020 “On measures to further increase the effectiveness of fundamental and Applied Research in Uzbek language and literature”, and other regulatory legal acts related to this activity.

The correspondence of the research with the priority directions of the development of science and technologies in the republic: The dissertation is carried out within the framework of the priority direction. I. “Formation of a system of innovative ideas and ways to implement them in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an informed society and a democratic state.”

The scope of study of the problem. The Kypchak languages and their historical sources have been studied in various aspects by a number of prominent scholars in world Turkology and Uzbek linguistics. Foreign and Russian orientalists were the first to introduce the period of the Mamluks (13th–15th centuries) Turkic into scientific circulation of written monuments in the history of Turkology. As part of the initial research, the scientists such as G.Kuun¹¹¹, M.T.Houtsma¹¹², K.Brokkelman¹¹³ laid the initial scientific foundation in illuminating the lexical-grammatical features of Kypchak languages.

Later, this tradition was extended by European and Western scholars, with special transcription and lexicographic analysis work. In Particular, the scholars, such as T.Khalashi-Kun¹¹⁴, J.Denni¹¹⁵, A.Zayonchkovsky¹¹⁶, and J.Ekman¹¹⁷ systematized mamluk-Kypchak texts from a textual point of view. R.Ermer’s studies on Mamluk-era Arabic-Turkish grammar have shed¹¹⁸ light on the issue of the application of Arabic patterns to Turkic languages.

¹¹¹ Kuun Géza. Codex Cumanicus Bibliothecæ ad templum divi Marci Venetiarum. – Budapest: Editio princeps, 1880. – P. 395.

¹¹² Houtsma M.Th. Ein türkisch-arabisches Glossar. – Leiden: E.J. Brill, 1894. – P. 114.

¹¹³ Brockelmann C. Osttürkische Grammatik der islamischen Litteratursprachen Mittelasiens. – Leiden: Brill, 1928. – P. 392.

¹¹⁴ Halasi-Kun T. The Qipchaq Mamlüks // Archivum Ottomanicum. – 1950. – № 1. – P. 247-266

¹¹⁵ Deny J. L'arméno-coman et les 'Éphémérides' de Kamieniec (1604-1613). – Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1957. – P. 71.

